

## **Bolalar nutqining rivojlanish xususiyatlari**

**Kalit soʻzlar:** nutq, kommunikatsiya, anamnez, korreksiya, adaptatsiya

**Annotatsiya** Ushbu maqolada bolalar nutqining kattalar nutqi asosida rivojlanib borishi, oiladagi ijtimoiy muhitning taʼsiri nutqining toʻgʻri shakllanishi atrofdegilar nutqiga, nutqiy tajribaga, toʻgʻri nutq muhiti va taʼlim-tarbiyaga bogʻliqligi inobatga olingan.

**Abstract** In this article, the development of children's speech based on the speech of adults, the influence of the social environment in the family, and the fact that the correct formation of speech depends on the speech of others, speech experience, the correct speech environment and education are taken into account.

Nutq tugʻma qobiliyat emas, balki hayot davomida bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan parallel ravishda shakllanib boradi.

Nutq buzilishlarini oʻrganish, tushunish uchun bola nutqining normal rivojlanish yoʻlini, bu jarayonning oʻziga xos xususiyatlarini, nutqning muvaffaqiyatli shakllanishida katta rol oʻynovchi sharoitni bilish lozim.

Bundan tashqari bola nutqining rivojlanish davrlarini aniq bilish zarur. Bu esa nutqning rivojlanishi jarayonidagi u yoki bu kamchiliklarni oʻz vaqtida bilish aniqlash uchun kerak boʻladi. Masalan, 1 yosh-u 4 oylik bola gapirmayapti. Pedagog bolaning normal rivojlanishida birinchi soʻzlar qachon paydo boʻlishini bilsa, u holda u bu bolaning normal yoki nonormal rivojlanayotganini hal qila oladi.

Bola nutqining rivojlanish xususiyatlarini bilish, nutq buzilishlariga toʻgʻri diagnoz qoʻyish uchun ham zarurdir. Baʼzi mutaxassislar uch yoshli bolaning tovush talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun uni logoped qabuliga yuboradilar. Bu toʻgʻrimi? Yoʻq, albatta. Chunki nutqi normal rivojlanayotgan bolaga hali bu yoshda baʼzi bir tovushlarni notoʻgʻri talaffuz etish xos boʻladi. Bu koʻrinish fiziologik dislasiya deb atalib, bu shu yoshdagi bolalarda artikulyatsiya apparatining hali yetarli darajada shakllanmaganligini bildiradi. Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda toʻgʻri va aniq tarbiyaviy-tuzatish ish rejasini tuzish uchun bola nutqining rivojlanish qonuniyatlarini yana bir karra bilish zarur hisoblanadi.

Mualliflar bola nutqining shakllanish davrlarini turlicha koʻrsatadilar, ularni har xil nomlaydilar va har birining yosh chegaralarini turlicha ifodalaydilar.

G.L. Rozengrad-Pupko bolada nutq rivojlanishini ikki davrga ajratadi:

1. tayyorlov davri (2 yoshgacha);
2. nutqning mustaqil shakllanish davri. A.N. Leontev bola nutqining shakllanishini 4 davrga boʻlib koʻrsatadi;
3. tayyorgarlik davri-bir 1 yoshgacha;
4. bogʻchagacha boʻlgan davr- 3 yoshgacha
5. maktabgacha boʻlgan davr-7 yoshgacha;
6. maktab davri.

Bu davrlarning toʻliq tavsifi ustida toʻxtalib oʻtamiz. Shunday qilib, birinchi davr - tayyorgarlik davri (bola tugʻilgandan bir yoshgacha).

Bola tugʻilgan daqiqadan boshlab ovoz chiqaradi. Bu ovoz qichqiriq va yigʻidan iborat boʻladi. Toʻgʻri, bu ovoz odam nutqidan uzoq. Lekin ana shu qichqiriq va

yig'ri nutq apparatining 3 bo'limini (nafas olish, ovoz hosil bo'lish, artikulyatsion) rivojlanishida katta rol o'ynaydi.

Ikki hafta o'tgach, bola gapirayotgan odamning ovozigga e'tibor bera boshlaydi. Unga gapirayotganda quloq soladi, yig'lashdan to'xtaydi. Bir oyligining oxiriga borib, uni mayin qo'shiq (alla) ostida tinchlantirish mumkin bo'lib qoladi. Keyinchalik u boshini gapirayotgan odam tomonga buradi yoki uni ko'zlari bilan kuzatadi. Tez kunda bola intonatsiyaga e'tibor bera boshlaydi: mayin gapirganda tinchlanadi, keskin intonatsiyaga-yig'laydi.

2 oylik atrofida gu-gulash, 3-oyning boshida bo'g'inlarning talaffuzi paydo bo'ladi (*aga-aga, ta-ta, ba-ba* va bosh=alar). Bunda tovushlar birikmasi aniq artikulyatsiya qilinmaydi. Bolalarning chuqurlashi haqida biz ko'pgina lug'atlardan va bolalar nutqining rivojlanishi bilan bog'liq masalalar yoritilgan istalgan adabiyotdan umumiy ma'lumotlarni olishimiz mumkin. Aniq ma'lumotlarga kelsak, bizning bu masalada nochorligimiz seziladi. Chug'urlash etapining rivojlanishi haqidagi aniq va sistemali kuzatilgan ma'lumotlardan tuzilgan yagona maqola yaqini vaqtlargacha G. Goer (Deryagina) va A.E. Goer (1927) tegishli edi. Bunda ham faqat bitta bola kuzatilgan edi. Shuning uchun namoyon bo'lgan faktlarning barchasi chug'urlash etapining rivojlanishidagi umumiy qonuniyatlarga qanchalik ko'p yoki kamroq taalluqligini aniqlash mumkin emas va bu faktlarda shu bolaning individual xususiyatlari ham mujassamlashganini unutmaslik kerak.

A.D. Salaxovanning tadqiqotlari tufayli biz ayni vaqtda 5 ta bolada chug'urlash etapining rivojlanishini sistemali kuzatishlar natijasida olingan materiallarga egamiz.

Chug'urlash etapining namoyon bo'lish muddatiga kelsak, bu yerda turli fikrlar mavjud: bir guruh mualliflar bu etap bola hayotining 2-oyi oxirlarida va 3-oyning boshlarida namoyon bo'ladi deb hisoblaydilar. Chug'urlash etapining namoyon bo'lish muddatini aniqlashda bunday katta farq haqiqiy chegaralarni topishda qiyinchilik tug'diryapti. Bu esa o'z navbatida ilgari keluvchi gu-gulash davri bilan chug'urlash etapini chegaralashni mushkullashtiradi. Garchi bir qarashda A.A. Leontev (1965) tomonidan gu-gulash va chug'urlash etaplari orasidagi ma'lum farqlar to'g'ri ifodalangan bo'lsada, bu 2 nutqgacha bo'lgan davrlar o'tish stadiyasida Shunday qo'shib ketadiki, ular orasidagi chegara sayqallanib qoladi. Darvoqe, chegaralarning bunday noaniq ko'rinishini chug'urlashdan haqiqiy nutqqa o'tishda ham kuzatish mumkin: bolada hosil bo'lgan so'zlar bilan bir qatorda ma'lum vaqt mobaynida atrof olamdagi predmet va hodisalarga aloqasi bo'lmagan chug'urlovchi tovushlar uyg'unligi ham aniqlanadi. Bunday tashqari gu-gulash va chug'urlash etaplari orasidagi chegara singari, chug'urlash bilan nutq orasidagi chegara ham individualdir. Bir vaqtda har bir bolada chegara o'ziga qarab u yoki bu tomonda b'ylishi mumkin.

A.D. Salaxovanning kuzatishlari bo'yicha chug'urlash etapi namoyon bo'lishining haqiqiy muddati taxminan 4- va 5- oylar o'rtasiga to'g'ri keladi. Aynan shunday fikrni A.A. Leontevning yuqorida keltirilgan ishida ham ko'rishimiz mumkin. Shundan kelib chiqib, bola hayotining 4- oyi chug'urlash davrining boshlanishi bo'lib sanaladi.

Bizda bir savol tugʻiladi: bola chugʻurlashi aniq nutqiy muhit bilan qanday munosabatda boʻladi, yaʼni boshqacha aytganda, chugʻurlash bevosita nutqiy muhit taʼsiri ostida yoki unga bogʻliq boʻlmagan holda rivojlanadimi? Bu savol behudaga berilgan emas. Chunki maxsus adabiyotlarda bu masala koʻp maʼnoda tushuntiriladi. Bir xil mualliflar, shu jumladan, V.A. Bogoroditskiy (1915) chugʻurlashni tovushlar hosil boʻlishi jarayonidagi bolaning “ermagi” sifatida izohlaydi. Bunda u chugʻurlashni nutq organlari bilan oʻynaladigan oyoq-qoʻlini bemaqsad harakatlantirishiga oʻxshash deb tushuntiradi. Boshqa mualliflar, masalan, M.A. Sikorskiy (1899) va A. Aleksandrov (1883) chugʻurlashni atrofdegilar nutqiga taqlid “meva”si sifatida baholaydi.

Berilgan savolni yechish usullaridan biri boʻlib, chuqurlash etapining tovush tarkibini aynan oʻsha nutqiy tovushlar (fonemalar) sistemasi bilan solishtirish va taqqoslanishi hisoblanadi.

Agar chugʻurlash etapining tovush tarkibi atrofdegilar nutqiga bogʻliqligini taxmin qilsak, uning berilgan nutqiy tovushlar sistemasi bilan mosligi, eng avvalo, unli tovushlarda namoyon boʻlishi kerak. Chunki unli tovushlar akustik munosabatda bir muncha “yorqinroq” va undoshlarga qaraganda bir-biriga bir muncha zidroq.

Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, chugʻurlash etapida oʻzining artikulyatsiyasi jihatidan odamlar tilidagi tovushlarga aynan oʻxshaydigan faqat unli tovushlar aniqlanavermaydi, balki muayyan tilga xos boʻlmagan tovushlar ham aniqlandi.

Masalan: unli (a), artikulyatsiyasi jihatidan ingliz tiliga yaqin ( $\mu$ ); tovushlar orasida oʻrtacha (i), ingliz tili uchun ham xarakterli (i); burunlashgan, yaʼni nazalizatsiyalangan tovushlar ( $\tilde{a}$ ), ( $\tilde{o}$ )-fransuz tiliga xos. Shuni taʼkidlash joizki, atrofdegilar tilga aynan oʻxshamaydigan, chugʻurlash etapidagi unli tovushlar miqdori, aynan oʻxshash tovushlarga nisbatan koʻproq.

Eng avvalo shuni aytish kerakki, rus tilidagi tovushlarga aynan oʻxshash unli tovushlar chugʻurlash etapida toʻliq tarkibda namoyon boʻlgan boʻlsa, undoshlar bu munosabatda butunlay boshqacha. Tekshirishlarning koʻrsatishicha, chugʻurlash etapida qayd qilingan tovushlar ichida shipillovchi undoshlar va tish oldi, tisharo undoshlar guruhi ham koʻrsatilmagan. Bu hol taxminan shunday tushuntiriladi: ayni davrda bolalarda tishlari hali chiqmagan boʻladi, baʼzi hollarda chiqishi ham mumkin. Til oldi tovushlari xuddi portlovchilar va shovqinlilar singari ingliz tiliga xos chiqadi. Chugʻurlash etapining oxirlariga kelib bolada tishlar paydo boʻlgani bilan, til oldi tovushlar chugʻurlash etapida umuman koʻrinmaydi. Ayrim bolalarda bu vaqtga kelib lab-tish undoshlari paydo boʻladi. Demak, chugʻurlash etapida portlovchi va shovqinlilar paydo boʻlmaydi.

Chugʻurlash etapi rivojlanishining umumiy sxemasini taxminan shunday tarzda berish mumkin.

Insonda nutqiy reaksiyalarning tarixiy taraqqiyoti natijasida bolaga maʼlum miqdorda artikulyatsion rivojlanish dasturi oʻtadi. Gu-gulash davrida va chugʻurlash etapining dastlabki bosqichlarida bu dastur bolalarning eshitishi holatiga bogʻliq boʻlmagan holda amalga oshadi: biz bu haqda yuqorida aytib oʻtgan edik, yaʼni gu-gulash va chugʻurlash etapi kar bolalarda ham boʻladi. Chugʻurlash etapi rivojlanishining keyingi bosqichlarida autoexolaliya mexanizmi qoʻshiladi. Bu rivojlanishda autoexolaliya mexanizmi faqat umumiy stimullovchi rol oʻynaydi.

Autoexolaliya, chug‘urlash etapini tovushlar zaxirasi bilan boyitmaydi, chunki o‘z-o‘ziga taqlid jarayonida bola faqat talaffuz qilganini o‘zinigina eshitadi. Chug‘urlash etapining keyingi rivojida, ayniqsa bu etapning tugashi bosqichida exolaliya mexanizmi qo‘yiladi. Bu mexanizm, chug‘urlash etapi rivojlanishini umumiy rag‘batlantirish bilan birga, ma’lum miqdorda bu etapni tovushlar zaxirasi bilan boyitadi.

Bolalarning exolalik reaksiyalari 3 xil ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Birinchi ko‘rinishda atrofdagilar bolaga chug‘urlashida bor bo‘lgan tovushlarni talaffuz qiladilar. Bu holatda exolalik reaksiya birmuncha muvaffaqiyatli chiqadi. Biroq bu reaksiyaning roli, autoexolaliyaning roli singari, chuqurlash etapining rivojlanishi uchun faqat umumiy rag‘batlantiruvchi bo‘lib ifodalanishi mumkin.

Exolalik reaksiyaning ikkinchi ko‘rinishida atrofdagilar bolaning chug‘urlash etapida ayni vaqtda yo‘q bo‘lgan tovushlarni talaffuz qiladilar yoki gapiradilar. Bu tovushlar qo‘yilgan dastur bo‘yicha ancha kechroq paydo bo‘lishi kerak. Exolalik reaksiya nol bo‘lib qoladi, ya’ni bola bu tovushlarga umuman ta’sirlanmaydi, agar ta’sirlansa ham baribir yana chug‘urlashi tarkibidagi tovush artikulyatsiyalariga e’tibor qiladi. Exolalik reaksiyaning bu ko‘rinishi ish ham birinchi ko‘rinishi singari asosan umumiy rag‘batlantiruvchi rol o‘ynaydi.

Exolalik reaksiyaning uchinchi ko‘rinishi quyidagicha: bolalarga chug‘urlash etapida yo‘q tovushlar talaffuz etiladi. Biroq bunda o‘zining akustiko-artikulyatsion belgilari bo‘yicha atrofdagilar talaffuziga yaqin tovushlar bo‘ladi. Bu holda bola tovush obrazining ta’siri ostida oldinga bir qadam tashlaydi, chunki uning artikulyatsiyasi berilgan tovushga to‘g‘ri kelishi kerak. Bunday turdagi rag‘batlantirishlar ko‘rinishidan chug‘urlash tarkibini boyitishda birmuncha samaralidir.

Exolalik reaksiyaning uchinchi ko‘rinishi ta’siri ostida bu etap rivojlanishi uchun qo‘yilgan dastur, ayniqsa uning tugashi bosqichida muayyan korrekativlar kiritilishi mumkin. A.D. Salaxova ham exolaliya hisobiga undoslarni yumshoq va qattiq belgisiga ko‘ra bir-biriga qarshi qo‘yib ma’lumot olgani ehtimoldan xoli emas.

Ko‘rinib turibdiki, chug‘urlash etapining rivojlanishida bola eshituvining roli asosan ovoz reaksiyalarini umumiy rag‘batlantirishga va bolaga nasliy berilgan artikulyatsion programmasini ma’lum miqdorda tuzatishga olib keladi.

Bolada nutqiy rivojlanish programmasining mavjudligi haqidagi taxminlar to‘g‘ri bo‘lsa, u holda bu programmani amalga oshirishda muayyan qonuniyat mavjud bo‘lishi kerak, xususan chug‘urlash etapida u yoki bu tovushlarning tartib bilan paydo bo‘lishi singari. Biroq shu paytgacha bu munosabatda biron-bir qonuniyatlarni aniqlash imkoni bo‘lmadi. Bolalar nutqi masalalari bilan shug‘ullanuvchi olimlar ko‘rinishidan yakdil fikrdalar: chuqurlash etapida hech qanday umumiy qonuniyatlar yo‘q va nutqgacha bo‘lgan davrda tovushlar tartibsiz paydo bo‘ladi.

R. Yakobson (1940-1942) bu borada Shunday yozadi: nutq rivojlanishi jarayonida tovushlarni tanlash bevosita tilning tabiatiga bog‘liq va muammo haqiqiy lingvistik hisoblanadi.

Chug‘urlash etapi tovushlari masalasida shunisi xarakterliki, bu yerda ularni o‘zlashtirish bo‘yicha hech qanday ketma-ketlikni o‘rnatishning keragi yo‘q.

Chug'urlash etapidan nutqga o'tish etapi asosida tovush zaxirasida yetishmaydigan tovushlarni o'zlashtirish sodir bo'ladi. Chug'urlashdan nutqga o'tish stadiyasi haqida xuddi shu nuqtayi nazarni A. Greguar (1947) ham aytib o'tadi.

Bu nuqtayi nazarni dastlab bizga ham to'g'ri bo'lib tuyulgan (V.I. Bel'tyukov, 1969). Biroq ish aslida boshqacha. Ko'pgina mualliflar ajoyib faktni ko'rsatadilar: bola chug'urlash etapidan nutqga o'tish vaqtida u yoki bu tovushlarni qandaydir "unutadi" va ularni boshqatdan o'zlashtirishni boshlaydi. A.D. Salaxovning (1972) tadqiqotlari Shunga guvohlik beradiki, bu holatda faqat muayyan tovushlarni unutish» o'rin olmaydi: tilning butun tovush (fonema) sistemasi shakllanishi jarayoni qaytadan sodir bo'ladi.

Bunga bog'liq ravishda tabiiyki savol tug'iladi. Nutqning rivojlanishi jarayonida chug'urlash etapining roli qanday? Eng avvalo, chug'urlash etapi bolaning artikulyatsion apparatini umumiy mashq qildirishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari bu etapning ahamiyati Shunga olib keladiki, exolaliya va autoexolaliya asosida muayyan motor-akustik aloqalar ishlab chiqiladi. To'g'ri, shuni unutmaslik kerakki, bolalar artikulyatsion apparatining rivojlanishi, xususan chug'urlash etapining rivojlanishi jarayonida motor-akustik aloqalarning hosil bo'lishi, harakatlar koordinatsiyasi va idrokning eng past darajalarida sodir bo'ladi.

Endi, chug'urlash etapining rivojlanishida qandaydir bir qonuniyatlar mavjudmi, degan savolga qaytamiz.

Tovushlarning alohida hosil bo'lishi tartibi munosabati bo'yicha bir bolaning chug'urlashini 2- bolaning chug'urlashishi bilan solishtirganda ayrim mualliflarning haqiqatan ham qaqiligi haqida tasavvur paydo bo'ladi. Bu mualliflar ta'kidlaydilar, bu yerda qandaydir qonuniyatlarni o'rnatish mumkin emas. Tovushlar faqat u yoki bu differensial belgilariga qarab guruhlangandagina nutq tovushlarining paydo bo'lish tartibi aniqlanishi mumkin.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, chug'urlash etapida tovushlarning birmuncha intensiv ko'payishi jarayoni umuman olganda 6 oylikdan keyin sodir bo'ladi va bir oydan ko'proq davom etadi. So'ng tovushlarning ko'payishi juda sekin va asta kechadi.

Endi tadqiqotdan olingan diqqatga sazovor faktlarni tahlil qilamiz.

Bu etapda burunli va og'izli undoshlar deyarli bir vaqtda paydo bo'ladi. Bu tovushlarning paydo bo'lishi vaqtida ayrim ustunlik tomonlar og'iz undoshlari tomonida ko'rindi, biroq turli bolalarda ayrim tovushlarga nisbatan og'iz undoshlaridan ko'ra burun undoshlarining o'zib ketishini kuzatish mumkin.

Chug'urlash etapida jarangli va jarangsiz undoshlar ham bir vaqtning o'zida paydo bo'ladi. Bu yerda esa jarangli undoshlar ayrim ustunliklarga egadir. Biroq bu yerda ham individual xususiyatlar mavjud: turli bolalarda alohida jarangsiz undoshlar juft jaranglilarga nisbatan ilgariroq paydo bo'ladi.

Qattiq va yumshoq undoshlarning paydo bo'lishi kuzatilganda dastlab yumshoq, so'ng qattiq til oldi undoshlari paydo bo'lar ekan: (t')-(t). Lab undoshlariga kelsak, til oldi tovushlariga qarama-qarshi o'laroq avval qattiq, so'ng yumshoq undoshlar hosil bo'ladi. Portlovchi va shovqinlilar ichida avval portlovchilar, so'ng shovqinlilar paydo bo'ladi.

Olingan bu ma'lumotdan ko'rinib turibdiki, bolalarda chug'urlash etapining paydo bo'lishida muayyan qonuniyatlar mavjud. Bir differensial belgilar bo'yicha bir-biridan taqqoslangan tovushlar guruhi chug'urlash etapida bir vaqtning o'zida paydo bo'ladi. (og'izli-burunli, jarangli-jarangsiz). Boshqa differensial belgilari bo'yicha taqqoslangan tovushlar guruhi (qattiq-yumshoq, portlovchi-shovqinli) turli muddatlarda paydo bo'ladi.

Tadqiqotning yana bir xarakterli tomoni shundan iboratki, chug'urlash davrining qaysi etapidan qat'i nazar juft tovushlarning biri paydo bo'lgani zahoti, ikkinchisi ham u bilan paydo bo'ladi.

Demak, taqqoslangan barcha undosh tovushlar guruhidan chug'urlash davrida birmuncha kontrastlik guruh burunli va og'izli undoshlar hisoblanadi. Deyarli shu darajada kontrastlik bo'lib, jarangli va jarangsiz undoshlar hisoblanadi. Til oldi yumshoq va qattiq undoshlar ham ma'lum miqdorda bir-biriga yaqin.

Keyin, bir-biriga yaqinligi bo'yicha portlovchi va shovqinlilar qattiq va yumshoq lab undoshlari ketadi.

Ma'lum undoshlar guruhi orasida kontrastlikning asta-sekin kamayishi tartibi sxemasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

burunli-og'izli

jarangli-jarangsiz

qattiq-yumshoq (til oldi) *q*

portlovchi-shovqinli

qattiq-yumshoq (lab)

Yuqorida bayon qilinganlarni umumlashtirib quyidagilarni aytish mumkin: chug'urlashning tovush tarkibi ma'lum miqdorda atrofdagilar nutqining tovush sistemasidan farq qiladi. Chug'urlash etapida ona tiliga adekvat tovushlardan ko'ra noadekvat tovushlar ko'proq. Iteratsiyani o'z ichiga olgan bo'g'in strukturasi ruscha so'zlarning bo'g'in strukturasi juda farq qiladi va bu holat, chug'urlash atrofdagilar nutqining bevosita taqlid mevasi emasligiga asos bo'ladi. Atrofdagilar nutqiga taqlid qilish uchun bolada bu davrda sensor va motor markazlar hali to'la yetilmagan bo'ladi.

Bola hayotining birinchi yilining oxiriga kelib, unda nutqiy aloqada bo'lish ehtiyoji o'sib boradi. U bir nimani olishni, so'rashni, aytishni xohlaydi. Bu ehtiyoj bolaning butun faoliyatida ishtirok etadi va unda aktiv nutqning paydo bo'lishini belgilab beradi. Bir yoshning oxiridan boshlab bolada aktiv nutq rivojlana boshlaydi, birinchi so'zlar paydo bo'ladi. Ammo bu so'zlar ko'pincha faqat bolaga, uning yaqinlariga tushunarli bo'ladi.

### **Ikkinchi davr – bog'chagacha bo'lgan davr (bir yoshdan 3 yoshgacha)**

Bolada birinchi so'zlar paydo bo'lgandan so'ng, tayyorlov davri tugab, aktiv nutqni egallash davri boshlanadi. Bu vaqtda bola atrofdagilar artikulyatsiyasiga e'tibor beradi. U gapirayotganlar orqasidan so'zlarni ko'p marotaba takrorlaydi va o'zi ham so'zlarni talaffuz qiladi. Talaffuz vaqtida bola ba'zi tovushlarni noto'g'ri talqin etadi, o'rnini almashtiradi yoki o'z nutqida qo'llamaydi. Bu vaqtda bola bir

soʻz yoki tovushlar birikmasi bilan predmetni ham, iltimosni ham, his-tuygʻuni ham ifodalashi mumkin.

Bola hayotining 2-3 yiliga kelib, uning lugʻat boyligi sezilarli darajada boyib boradi.

**Shuni taʼkidlash kerakki, koʻpgina xilma-xil tadqiqotchilar bola lugʻat boyligining oʻsib borishida turli raqamli maʼlumotlarni koʻrsatadilar. Eng keng tarqalgan maʼlumotga koʻra, bolalarning lugʻat boyligini bogʻchagacha boʻlgan davrda oʻsishi quyidagi raqamlarni koʻrsatadi:**

1 yosh-u 6 oyda — 10 - 15 ta soʻz, 2-yilning oxiriga kelib — 300 ta soʻz, 3 yoshga borganda - 1000 ta soʻz.

Bola hayotining 3-yiliga kelib, nutqning grammatik tomoni shakllana boshlaydi. Avval bola oʻz xohish va iltimoslarini bir soʻz bilan ifodalaydi. Keyinchalik 1—2 ta soʻzdan iborat sodda jumlar paydo boʻla boshlaydi.

**Uchinchi davr – maktabgacha boʻlgan davr (3 yoshdan 6 yoshgacha).**

Maktabgacha boʻlgan davrda bolalar birinchi navbatda artikulyatsion jihatdan oson talaffuz etiladigan: lab-lab, lab-til undoshlari - *p, b, m, f, ye* va boshqalarni oʻrganadilar. Artikulyatsion jihatdan talaffuz etish qiyin boʻlgan: shivirlovchi, sirgʻaluvchi (*s, z, sh, j, ch*) va sonor (*r, l*), til or=a (*k, g*) tovushlarini talaffuzinn egallashda qiynaladilar. Shuning uchun bolalar bu tovushlarni nutqda notoʻgʻri qoʻllaydilar yoki talaffuz etmaydilar.

3—7 yoshgacha boʻlgan davrda bolalarda eshitish malakalari rivojlanib boradi, bu esa bolaning oʻz talaffuzini nazorat qilishga imkoniyat yaratadi. Baʼzi hollarda bola oʻz kamchiligini toʻgʻrilaydi. Unda fonematik idrok shakllanib boradi.

Bu davrda lugʻat boyligining oʻsishi davom etadi. Bolaning 4-6 yoshida uning aktiv lugʻati 3000-4000 ta soʻzgacha yetadi. Lugʻat boyligi oʻsib borishi bilan birgalikda nutqning grammatik tomoni xam rivojlanib boradi.

Bola hayotining 4-yiliga kelib, ular oʻz nutqlarida sodda va murakkab gaplarni qoʻllay boshlaydilar. 5 yoshga kelib esa, qoʻshma gaplardan erkin foydalana oladilar. 5 yoshli bolalar qoʻshimcha savollarsiz hikoya va ertaklarni aytib berish qobiliyatiga ega boʻladilar.

Bu davrda fonematik idrok sezilarli darajada rivojlanadi. Bola avval unli va undoshlarni, soʻng sonor, shovqinli va sirgʻaluvchi tovushlarni ajrata boshlaydi.

Normada 4 yoshli bola barcha tovushlarni ajrata olishi, unda fonematik idrok shakllangan boʻlishi lozim.

Bu vaqtga kelib tovushlarni toʻgʻri talaffuzining shakllanishi tugallanadi va bola har tomonlama toʻgʻri, aniq gapiradi.

**Toʻrtinchi davr - maktab davri (7 yoshdan 17 yoshgacha).**

Bu davrning oʻziga xos tomoni shundaki, bolalar nutqining rivojlanishi oldingi davrlardagiga nisbatan ongli ravishda roʻy beradi. Bu davrda bolalar tovushlar analizi, nutqning grammatik qonuniyatlarni egallaydilar.

Bu davrda nutqning yangi turi yozma nutq yetakchi rol oʻynaydi. Grammatik konstruksiyalar ham murakkablashib boradi: *chunki, agar, qachonki* kabi bogʻlovchilarni ishlata boshlaydilar. Bu bolaning tafakkur jarayonlari murakkablashib borayotganligini va bu nutqda oʻz ifodasini topayotganligini koʻrsatadi.

Bola nutqining rivojlanish jarayoni o‘z vaqtida to‘g‘ri kechishi uchun maxsus sharoitlar zarurdir.

Buning uchun:

- bola ruhiy va jismoniy jixatdan sog‘ bo‘lishi;
- normal aqliy qobiliyatga ega bo‘lishi;
- normal eshitishi va ko‘rishi;
- yetarli darajada ruhiy aktivlikka ega bo‘lishi;
- gaplashish ehtiyojiga ega bo‘lishi;
- to‘g‘ri nutq muhitiga ega bo‘lishi lozim.

Bolada nutqning normal rivojlanishi, unga doimo yangi tushunchalarni o‘zlashtirib olishga, tevarak-atrof haqidagi bilim va tasavvurini kengaytirishga imkoniyat yaratadi.

Shunday qilib, nutq, uning rivojlanishi tafakkurning rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir.

### **Tekshirish uchun savol va topshiriqlar:**

1. Bola nutqining rivojlanishi necha davrni o‘z ichiga oladi? Uning mohiyati nimadan iborat?
2. G.L. Rozengrad-Pupko nutq rivojlanishini qanday davrlarga ajratdi?
3. A.N. Leontev bola nutqining rivojlanishini qanday davrlarga ajratdi?
4. Nutq rivojlanishida tayyorgarlik davrining mohiyatini ochib bering.
5. Nutq rivojlanishida bog‘chagacha bo‘lgan davr mazmunini yoriting.
6. Nutq rivojlanishida maktabgacha bo‘lgan davr mazmunini yoriting.
7. Nutq rivojlanishida maktab davri mazmunini yoriting.
8. Tadqiqotchilar A.N. Peozdeva, G.L. Rozengar-Pupko, L.N. Leonteva, N.I. Jinkin materiallari asosida ontngenez jarayonida bola nutqining rivojlanish davrlari ko‘rsatuvchi sxema tuzing.

### **Adabiyotlar**

1. Volkova L.S., SHaxovskaya S.N., Logopediya – M., Vldos, 2002.
2. Volkova L.S., Seliverstov V.I. Xrestomatiya po logopedii. – M., Vldos, 2002.
3. Krauze V.N. Logopediya. – M., Izd-vo Korona print, 2003.
4. Mo‘minova L.R., Ayupova M.Yu. Logopediya. T., “O‘qituvchi”, 1993 .
5. Neyman L.V., Bogomilskiy M.R. Anatomiya, fiziologiya i patologiya organov sluxa i rechi. – M., Izd-vo “Vldos”, 2001g.